

Eshik ochilib bir-biridan ezgin xayollarimni uchirib yuboradi. Onajonim astagina tepamga kelib sochlarimni silaydilar

- O'tiribsanmi bolam? Men ketyapman, senam birrovga chiqsang bo'lardi, sal bo'lsayam ko'ngling yozilardiv B|

Men qizargan ko'zlarimni onamdan yashiraman.

- Yo'q, ona, borgim yo'q B|

- Mayli, bo'masa men tezgina qaytaman. Aytganday, o'g'lim, to'yga anavi sen yoqtiradigan hofiz kelarmish, chiqsang ko'rarding, qo'shiqlarini tinglarding B|

- Siz boravering, onajon, hofizning ovozi bu yerga bemalol eshilib turadiv B|

- Ha mayli B|

- Chiroqnio'chirib keting!

Hujram ko'nglim bilan bir xil tusga kiradiv B|

To'y bo'layotgan xonadondan kelayotgan yor-yor sadolari, karnay-sunray ovozi yetti mahallaga taraladi. Yo'q-yo'q, bular yor-yor emas, shodlik emas, bular B| bular ayriliq, hijron sadolari! Bular o'ksib-o'ksib yig'layotgan muhabbatning nidolari!

Bu mashum sadolar mening zulmatga cho'mgan hujramga ham kirib keladiv B| Qulog'im ostida jaranglab, go'yo ustimdan kulayotgandek bo'ladiv B|

Boshimni bolishning ostiga tiqaman, ko'zlarimni chirt yumaman, yo'q B| Baribir eshitalaveradiv B|

Eshitalaveradi, eshitalaveradi!!!

Bo'g'zimdan olamni buzgudek bir faryod otilib chiqadiv B|

Bu faryod B| Bu faryod karnay-sunray sadolari ostida yo'q bo'lib ketadiv B|

Yuragim yonyaptiv B|

Men nega buncha kuyyapman? Kim uchun buncha faryod chekyapman?

Sen uchunmi?

Men seni sevarmidim? Bunchalik yonib-kuyishimga qaraganda sevar ekanman-da! Buni qara-ya, buni o'zim ham bilmas ekanman B|

Axir kechagina o'zim senga kulib turib baxt tilamadimmi?

Yo'q-yo'q B| Men seni sevmayman B| Biz do'st edik xolos.

Esingdami? Xudoni bergan kuni qo'lingda kitob bilan yonimga chiqib kelarding. Qo'lingdagi kitob albatta muhabbat xaqida bo'lardi.

Sen ko'zlaring chaqna kitobni maqtay-maqtay qo'linga tutqazib ketarding. Torgina hujram sen berib ketgan katta-kichik kitoblar bilan to'lib-toshgandi. Men kitobni tezroq tugatishga harakat qilardim, chunki o'qib bo'lganimdan so'ng sen bilan asar xaqida uzoq-uzoq tortishib, bahslashib o'tirardik. Sen o'zimiz o'qib chiqqan kitoblardagi hayotni orzu qilarding B| Yodimda, bir kuni "Choliqushi xaqida uzoq suhbatlashdik

- Bariga Komron aybdor! - deganding uzun-uzun kipriklaring pirqirab, - axmoq bo'lmasa, Faridani allaqanday sariq gullarga almasharmidi?

- Hayotda hamma adashadi. - Shunday deymanu sening qo'ng'iroq sochlaringdan, Oллоh inom etgan, hech qanday bo'yoqlarsiz go'zal husningdan ko'z uzolmay tikilib qolaman.

- E-e, ana endi shu axmoqligini deb shuncha yil azob chekdi. Farida "hamma sariq odamlar bevafo bo'ladi, degan. Menimcha u xaq! - shunday deysan-u, qiqir-qiqir kulasan. Bu gapni menga tekkizib aytayotganingni bilaman. Shu choqda sen ko'zimga xuddi o'sha Faridadek ko'rinib ketasan. - Bilasanmi, Oygul, sen xuddi Faridaga o'xshaysan.

- Rostdanmi?

- Ha, rost B| Agar men Komronning o'rnida bo'lganimda edi, Faridani hech qanday gulga alishmagan bo'lardim B|

Sen qizarib, ko'zlaringni olib qochasan.

Xayollarimni to'y xonadonidan kelayotgan mungli qo'shiq bo'lib yuboradi. Ha, bu o'sha, men suygan hofiz B| Dard bilan sug'orilgan qo'shiq so'zlari mening xonamga ham oqib kiradi:

B B B B Sen bog'dagi yelday sho'x,

B B B B Bir dam orom olsayding B|

B B B B Derlar orzuga ayb yo'q,

B B B B Mani sevib qolsayding B|

Yuzimda nam sezaman, yig'layapmanmi? Nima uchun?! Hofizning qo'shig'igami? Men ham shuni orzu qilganmidim? Nahot shunday orzu etishga jurat qilgan bo'lsam?

B B B B Yoy nishonga yetmasdan,

B B B B Fursat mag'lub etmasdan

B B B B Umrin o'tib ketmasdan

B B B B Mani sevib qolsayding B|

B B B B Dunyo sinovli, shartli,

B B B B Xam quvonchli xam dardli

B B B B Orzuyim bo'lmay gardli

B B B B Mani sevib qolsayding B|

Kecha oxirgi marta yonimga kelding B|

Bu safar qo'lingda kitobmas, chetiga kashtalar tikib bezatilgan ro'molcha bor edi.

- Aziz, meni unutmaysan-a? - deding chiroyli ko'zlaringni menga tikib.

- Yo'q, Oygul, seni unutmayman. Axir o'zimizni mahallaga kelin bo'lyapsan-u.

- Shundayku-ya, endi baribir oldingga chiqib turolmaymandav B| Lekin bilasanmi, sen mening eng yaxshi do'stimsan. Sen bilan qurgan suhbatlarimiz, bahslashganlarimiz hech qachon yodimdan chiqmaydi.

- Mening ham B|

- Ertaga to'yimga chiqasana?

- Albattav B|

This is not registered version of TotalDoc Converter

- Atdimaysanmi o'z qalbing xani bo'lsan. Dadam to'yga sen yoqtirgan hofizni olib kelar ekanlar. Dugonalarim biram kuyib ketyapti B|  
- Sen albatta bahtli bo'lishing kerak Oygul B| O'zing istaganingdek, o'sha kitoblardagidek go'zal baht qurishga intil B|  
- Rahmat, Aziz, sen chinakam do'atsan. Xayr, endi uyga chiqa qolay B|  
Sen qo'limga o'zing tikkan ro'molchani tutqazib ketding. Alvon ro'molcha chetiga oppoq ipak bilan "O+A=Ddeb yozib qo'yibsan B|  
Mana, ro'molchang qo'limda, undan seni iforing kelyapti, Oygul B|  
Bugun sening to'ying B| Tasavvur qilyapman qanchalik go'zal bo'lib ketganingni. Oq libos senga judayam yarashgandir-av B|  
Eshityapsanmi, Oygul, qo'shiqni eshityapsanmi?  
Kuy yig'layapti B| kuy o'z dardiga dosh berolmay yig'layapti. Hofiz o'rtanib-o'rtanib meni dardimni kuylayapti Oygul B|  
B B B Keldi mehring fursati,  
B B B Bo'lay vasling ulfati,  
B B B Sodiqligim hurmati,  
B B B Mani sevib qolsayding B|  
B B B Qadru qimmatim bilib,  
B B B Biroz nazarga ilib,  
B B B Ko'nglimga shafqat qilib,  
B B B Mani sevib qolsayding.

Qishloqdoshlarimning qiyqirib chapak chalgani, B Juft bo'lsin! deb baqirishgani eshitiladi.

Ey, odamlar, bu qo'shiqni qiyqirib, chapak chalib emas, yig'lab eshitish kerak, yig'lab! Bu qo'shiqni dardi borlar, yuragi yonayotganlar eshitishi kerak B|

To'yni u yog'i sho'x-sho'x sadolarga ulanib ketadi.

Bilaman, hozir davra to'rida, oppoq libosda yal-yal yonibo'tiribsana, ko'zing bilan meni izlayapsan. Kechir meni, to'yingga chiqolmadim, Oygul. Mening bebosh qalbm seni sevib qolishga jurat qilibdi B| Hofiz aytganidek, orzuga ayb yo'q B|

Hujram havosi og'irlashib, bo'g'zimdan bo'g'ayotgandek bo'lyapti B|

Eshik g'ichirlab ochilib onamning xushhol qiyofalari ko'rinadi.

- Zerikmay o'tiribsanmi, bolam? Anavi hofiz to'yni rosa qizdiryapti. O'ziyam butun qishloq ko'chib kepti-yov uni ko'rgani.

Po'latboyam juda orzu-havasli-da, to'yiga shundoq hofizni olib kelibdi!

- Ona, siqilib ketdim, hovliga chiqaman B|

- Hozir, bolam, - onam shoshib tepamga keladilar. - Oygul shunday chiroyli kelin bo'libdi, ko'z tegmasin, ko'rgan odamni suqi kiradi-yav B| Po'latboyning o'g'li bilan bir-birlariga uzukka ko'z qo'ygandek yarashishibdi o'ziyam!

Oh onajonima, dardimni bilmaydilar-dav B| Bilmaganlariyam yaxshi. Bir o'zimni kuyganim ham yetar B|

Aravachamni g'ildiratib, hovliga chiqaman. Ko'ksimni to'ldirib-to'ldirib nafas olaman.

- Ollohga shukur...